ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati..... 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya..... 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida)..... 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий..... 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him..... 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang..... 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida)..... 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TIL TIZIMIGA KIRITILGAN ZOONIM VA ZOOMORFIZMLARNING QIYOSIY TIPOLOGIK TADQIQOTLARDAGI TAHLILI

Norkuziyeva Dildora,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

Jahon tilshunosligining so'nggi yillardagi taraqqiyotida til va tafakkur, til va madaniyat munosabatlari doirasida zoomorfizmlarning tutgan o'rni, ularning shaxsni obrazli tavsiflash imkoniyatlarini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar salmoqli o'rin egallamoqda. Zoomorfizmlarning aksiologik imkoniyatlari stilistika, matn tilshunosligi, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya singari yo'nalishlarning asosiy tadqiq obyektiga aylandi. Ayniqsa, zoomorfizmlar antropotsentrik paradigma yo'nalishida olamning lisoniy va lingvomadaniy manzarasida idrok, tafakkur, mental ong ishtirokini yoritish va uni ifodalashda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalishdagi izlanishlarning ma'lum bir xalq obrazli tafakkurining o'ziga xosligi hamda turli etnik guruhlar olami qadriyatlar manzarasidagi farqlarning ontologik mohiyati va lingvokulturologik mexanizmini aniqlash tilshunoslikda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligininng yetakchi ilmiy markazlarida bugungi kunda tillarni qiyoslash, chog'ishtirish, ularning universal va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash negizida hayvon nomlarining umumiy va xususiy belgilari tahlil etilmoqda. Zoomorfizmlar olamini idrok etishda, uni aks ettirishda hayvon nomi, lisoniy ong, tafakkur munosabatlarini o'rganish, zoonim leksikasi, uning leksik tizimdagi o'rni, fikrlash jarayoniga belgilovchi ta'siri masalalarini tadqiq etish tobora amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Lisoniy ongdagi antropomorflashish, zoomorfizmlar olami manzarasini kategoriyalashtirish, til va tafakkur munosabatlarida zoonimlarning muloqotga majoziy konnotatsiyalar taqdim etish funksiyasiga doir izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Lingvokulturologiya sohasida yaratilgan ishlarda hayvon nomlarining asl va majoziy ma'nolari muammosiga oid ko'plab qimmatli fikrlar bayon etilgan. Jumladan, H.Hülzer, D.Dobrovol'skij, E.Piirainen, A.Paululat, R.Bisschops, K.Bochmann, I.S.Gilhus, H.Ch.Hart, V.A. Buldakov, *O.I.Glazunova, D.X.Bazarova*, N.Nishonova va boshqalarning ishlarini alohida qayd etish mumkin.

Til tizimiga kiritilgan har bir so'zning asl ma'nosi bor, lekin u asl ma'nodan farqli obrazli ma'noni ham anglatishi mumkin. Obrazli til so'zning ma'nosini kengaytirishga hamda asl ma'noda muhim ma'noga ega bo'lmagan iboralarga ma'no berishga imkon beradi. Masalan, o'zbek va nemis tillarida zoomorfizm sifatida qo'llanadigan "*bo'ri/wolf*" so'zi kimdir bo'ridek yashaydi, ovlaydi, ko'payadi, degan ma'noni anglatmaydi. U o'zbek tilida *yovuz, qonxo'r, shafqatsiz odamni,* nemis tilida esa *battol, och odamni* anglatadi. Bu atributlarning barchasi odamlar kuzatgan bo'rining xatti-harakati bilan bog'liq. Bunday kuzatishlar odamlarga bo'ri xislatlarini odamga ko'chirish imkonini beradi. Bo'rining bu xislatlari obrazli ma'noda inson olamiga ko'chiriladi. "Zoometafora va zoomorfizmni qiyosiy va tipologik jihatdan o'rganish inson tafakkurining umumiy modellarini tushunishga, turli tillar va madaniyatlarda o'xshashlik va farqlarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan tipik assotsiatsiyalarni aniqlashga yordam beradi"[1]. Zoometafora va zoomorfizm atamalari, oldin ta'kidlaganimizdek, funksional aspektda bir-biridan farq qiladi: zoometafora nomlashning "hayvon→hayvon, obyekt va h.z." modeli bo'yicha amalga oshishini nazarda tutadi, masalan, sich-

[1] Norkuziyeva D.Sh. (2022). Study of Ethnolinguistic-Cultural Features of Zoomorphisms inScientific Researches. Texas Journal of Philology, Culture and History, 12, 12–14.

qoncha – “kompyuter gadjeti”, Zoomorfizm atamasi esa faqat “hayvon→odam” modeli doirasida turli konnotatsiyalarga ega hayvon majoziy obrazining odamga ko‘chirilishini ko‘rsatadi. Zoomorfizmning universalligi tilning tuzilishi va qo‘llanishida namoyon bo‘ladi.

An’anaga ko‘ra, zoomorfizmlar deganda kimningdir metaforik tavsifi uchun nominatsiya sifatida ishlatiladigan zoonimlar tushuniladi. Ayrim hollarda “zoomorfizmlar” va “zoonimlar” tushunchalari tabaqalanmagan holda qo‘llaniladi[1]. Biz bunday qo‘llanishni mutlaqo to‘g‘ri emas deb hisoblaymiz, chunki zoonimlar hayvonlar va ularning tana a’zolarining asosiy nomlari sifatida qo‘llanadi, zoomorfizmlar esa aniq ifodalangan konnotativ potentsialga ega bo‘lgan, shunchaki nominativ funksiyada emas, balki ekspressiv-baholovchi, tavsiflovchi funksiyada qo‘llanadigan ikkilamchi obrazli, metaforik belgilardir. Shu bilan birga, keng ma’noda (oddiy ongda) “hayvon” tushunchasining doirasi nafaqat “hayvonlar”ni, balki faunaning barcha vakillarini (shu jumladan hasharotlar, baliqlar, qushlar, sudraluvchilar va boshqalarni) ham o‘z ichiga oladi.

Insonning tashqi ko‘rinishi, xatti-harakati, yashash tarzi va xarakter xususiyatlarini majoziy baholash maqsadida qo‘llanadigan zoomorfizmlarni tadqiq qilishda qiyoslash, tavsiflash, komponent tahlil usullaridan hamda zoomorfizm ma’nosining yaratilish asosida turuvchi obrazli tasavvurlarni (bilimlar fondini) tasvirlashda kognitiv talqin qilish metodidan foydalanildi.

“Hayvon → odam” qolipi doirasida odamning peyorativ va meliorativ tavsifi uchun turli tillarda qo‘llaniladigan zoomorfizmlar tilda aniq ifodaliligi bilan ajralib turishi bilan birga quyidagi xususiyatlarga ham ega bo‘ladi: a) ular har doim baholash qiymatiga ega (masalan, *xameleyon* - o‘zgaruvchan, prinsipsiz shaxs haqida); b) bunday zoomorfizmlar aniq ifodalangan ekspressivlikka ega (masalan, *cho‘chqa* iflos odam haqida); c) antropotsentrik zoomorfizmlar nominativ funksiyani emas, balki obrazli tavsiflash funksiyani bajaradi (masalan, *maymun* - xunuk yoki qiyshanglaydigan odam haqida); d) bunday zoometaforlar odatda odamning tashqi ko‘rinishi, xarakteri yoki xatti-harakatining ma’lum bir xususiyatini hayvon obrazini idrok etishning dominant parametrlariga muvofiq baholaydi (masalan, fil – “jussasi pishiq odam haqida”, jirafa – “bo‘ydor odam haqida”); e) shaxsni tavsiflovchi zoomorfizmlar etnomadaniy qoliplarga bog‘liq holda ham asosiy baho, ham qo‘shimcha baho berishi mumkin (masalan, it odamga nisbatan umumiy baholovchi - ham ijobiy, ham salbiy tavsiflovchi funksiyaga ega zoomorfizmdir; qiyoslang: *ko‘ch. haqorat*. Sen yomon itsan va *ijobiy*, bilimdon, it! It zoomorfizmining juz’iy baholovchi ma’nolari “battol/badjahl”, “sodiq” va hokazo)[2].

“Hayvon → odam” zoomorfizm turi shaxsni metaxarakterlash usullaridan biridir. Bunday zoomorfizmlarning maqsadi har doim yoki deyarli har doim baholovchi ma’noga ega bo‘lgan ba’zi belgilar orqali shaxsga nisbat berishdir, ya’ni hayvon xususiyatlarining odamlarga ko‘chirilishi baholovchi konnotatsiyalarni nazarda tutadi. “Zoonimlarning o‘zlari baholashga nisbatan neytraldir, lekin odam hayvonlarda tabiat tomonidan berilgan belgilarni payqab, ularning axloqiy, ruhiy, xulq-atvor tavsiflarini o‘ziga ko‘chiradi”[3]. “Hayvon → odam” modeli bo‘yicha shakllantirilgan zoomorfizmlar (“hayvon → odam” modelining metaforik qayta anglanishi) yoki boshqacha qilib aytganda, hayvonot dunyosi bilan assotsiatsiyalarga va o‘xshatishlarga asoslangan metaforalar zoomorfizmlar deb ataladi, keng va ko‘p qirrali aloqalar bilan tavsiflanadi. A.P.Chudinovning so‘zlariga ko‘ra, “zoomorfik metafora yaratishda hayvon obraziga, avvalo, insonning tashqi belgilari, yoshi, xarakter xususiyatlari, turmush tarzi va xulq-atvori kabi antropomorfik xususiyatlar yoziladi, so‘ngra bu obraz shaxsga o‘tkaziladi, unga zoomorfik belgilar (hay-

[1] Огдонова Ц.Ц. Зооморфная лексика как фрагмент русской языковой картины мира: Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Иркутск, 2000. – 21 с.

[2] Miller G.A. Images and models, similes and metaphors. // Metaphor and Thought, 2nd edition, by A. Ortony, Cambridge University Press, 1993. – P. 357-400.

[3] Bisschops R. Die Metapher als Wertsetung. Novalis, Ezechiel, Beckett. Paperback Published November 1st 1994 by Peter Lang Gmbh, Internationaler Verlag Der Wissenschaften, 1994. - 401 S.

vonning tashqi ko‘rinishi, tabiati, odatlari) proyeksiyalanadi”[1].

V.M.Mokienkoning ta’kidlashicha, “turli tillardagi ko‘plab turg‘un o‘xshatishlarning o‘xshashligi hayvonlarning fe’l-atvori va odatlari ustida inson kuzatishlarining aynan umumiyligiga asoslanadi. Albatta, bunday o‘xshashlikning zaruriy sharti hayvonot olamining umumiyligi va/yoki bu hayvonning xalq orasida mashhurligi bo‘lishi kerak”[2]. Demak, “zoomorfizm” atamasidan metafora ma’nosi nazarda tutiladiki, unda hayvonning xatti-harakati, his-tuyg‘ulari yoki tashqi ko‘rinishi odamning xatti-harakati, his-tuyg‘ulari yoki tashqi ko‘rinishiga ishora qiladi hamda, tom ma’noda, ko‘pincha qo‘shimcha yoki murakkabroq ma’noni juda nozik tarzda ifodalaydi. Bu “ifodalab bo‘lmaydigan narsani ifodalash” yoki “aytib bo‘lmaydigan narsani aytish” usuli sifatida qaralishi mumkin. Obrazli o‘xshatishlarning har xil turlari asosida shaxsni tavsiflashning lingvokognitiv mexanizmi sifatida zoomorfizmlarni tadqiq etish, o‘z navbatida, til tizimlaridagi alohida zooobrazlarning milliy o‘ziga xosligini, etnik guruhlarning milliy mentaliteti va ma’naviy madaniyati an’analarnining xususiyatlarini aniqlash zaruratini nazarda tutadi. Shu bilan birga, ma’lumki, “qardosh bo‘lmagan milliy tillar hayvon obrazi orqali odamni tavsiflovchi nominatsiyalar sohasidagi o‘xshash bilimlarni ham turlicha verballashtirishi mumkin”[3]. Yuqorida aytilganlar zoomorfizmni odam va hayvonning xulq-atvor reaksiyalari o‘rtasidagi assotsiativ o‘xshashliklar asosida turuvchi milliy va madaniy standartlarni aniqlaydigan ong stereotiplarini qamrab oluvchi hodisa sifatida o‘rganishning dolzarbligini belgilaydi.

S.M. Tolstayaning ta’rifiga ko‘ra, bu hodisa “faqat til va madaniyatning mazmun tomoniga tegishli bo‘ladi, ya’ni birinchi navbatda, aqliy stereotip sifatida tushuniladi va olamning oddiy manzarasi bilan o‘zaro bog‘lanadi. Bunday stereotipni lingvistik deb ham atashadi, bunda uning namoyon bo‘lish shakli, so‘zning lug‘aviy ma’nosida, uning konnotatsiyasida, semantik derivatsiyasida, sintaksisda, birikishida, idiomada, til troplarida, ayrim turdagi matnlarda, xususan, xalq og‘zaki ijodida ifodalanish doirasi nazarda tutiladi”[4].

Kognitiv manbai sifatida odamga ko‘chirilgan hayvon “obrazi” xizmat qiladigan zoomorfizm kollektiv va individual ong stereotiplarini metaforik ifodalashning eng samarali modellaridan biridir. Bunday metaforalar, shubhasiz, etnomadaniy belgiga ega bo‘ladi, bu ularni har tomonlama o‘rganishga alohida qiziqishni belgilaydi. Lingvokognitiv tahlil metafora talqiniga ontologik asosning tilda o‘zgacha ma’no kasb etishi asosida (ya’ni tafakkur strukturasidan bilish aktining lingvistik ifoda tuzilishi tomon) yondashish imkonini beradi.

Tahlil qilish tartibi psixolingvistik, lingvokulturologik va qiyosiy tavsiflarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv tilni o‘ziga xos “shaxsiy proyeksiyaning o‘ziga xos maydoni” sifatida ko‘rib chiqishning xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, unda subyekt, bir tomondan, belgilar tizimi tomonidan berilgan olamni idrok etishning (ijtimoiy qat’iy) stereotiplariga muvofiq harakat qiladi, boshqa tomondan, belgi birliklarini tushunishga o‘zining kognitiv va tajribasini kiritib hamda o‘zining til va aqliy afzal ko‘rishlariga mos ravishda harakat qilib “ijodiy faoliyat” ko‘rsatadi[5].

Zoomorfizmlar semantikasida belgi va tushuncha o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi denotativ komponent va belgi namoyon bo‘lishida his-tuyg‘u, baho, obrazlilik va intensivlik semalarini ma’no tarkibida mustahkamlovchi konnotativ komponent birlashtiriladi. O‘xshatish asosi sifatida ongda paydo bo‘ladigan assotsiativ o‘xshashlik, bir tomondan, intuitiv tarzda topilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, aqliy tasavvurni lingvistik tarzda taqdim

[1] Чудинов А.П. Структурный и когнитивный аспекты исследования метафорического моделирования // Лингвистика: бюл. Урал. лингвист. о-ва. – Екатеринбург, 2004. – Т. 6. – С. 108 – 116.

[2] Miller, G.A. Images and models, similes and metaphors. // Metaphor and Thought, 2nd edition, by A. Ortony, Cambridge University Press, 1993. – P. 357-400.

[3] Исмаилов С.И. Семантическая характеристика образных сравнений во французском языке (на материале художественных произведений XIX-XX вв.): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. - Ленинград, 1980. – 23 с.

[4] Толстая С.М. Стереотип в этнолингвистике // Речевые и ментальные стереотипы в синхронии и диахронии. - М., 1995. – С. 124-127.

[5] Гридина Т. А., Пятинин А. Э. Проективная активность личности в речевой деятельности // Психолингвистические аспекты речевой деятельности. 2003. №1. - С. 5–14.

etishning mumkin bo‘lgan usullaridan biridir. Bu fakt ma’noning metaforik ko‘chishini bir xil ma’noda talqin qilishning mumkin emasligini izohlaydi. Bu borada to‘g‘ri ta’kidlanganidek, “til sohiblari ongida u yoki bu obrazdan foydalanishda yuzaga keladigan assotsiativ tavsiflar juda xilma-xildir”. Bitta metaforik obraz ortida turli xil predikativ tavsiflar biriktirib qo‘yilishi mumkin va aksincha, bir xil belgiga turli metaforik subyektlar mos kelishi mumkin. “Agar til sohiblarining ongida bir xil belgini ifodalash uchun bir nechta konnotativ obrazlar mavjud bo‘lsa, yakuniy tanlovni amalga oshirishda ko‘plab omillar hisobga olinadi: ... obrazning salbiy yoki ijobiy holati, undan foydalanish chastotasi, uning nutq adresati tomonidan potentsial idroki”[1]. Masalan, *quyon kabi izni yo‘qotmoq* (ayyor odam haqida) iborasidagi quyon obrazining ramziyligini, agar faqat *quyon qo‘rqoq* degan propozitsiyadan kelib chiqiladigan bo‘lsa, bir ma’noda talqin qilish mumkin emas.

Zoomorfizmning, xususan, zoomorfik analogiyalarda ham namoyon bo‘ladigan yana bir muhim xususiyatini qayd etamiz: o‘xshatish uchun asos sifatida tanlanadigan obraz voqelikni idrok etish va baholash bo‘yicha milliy ko‘rsatmalarga tayanadi. Masalan, o‘zbek ongidagi eshak obrazi mashaqqatli mehnatni itoatkorlik bilan bajaradigan (ertalabdan kechgacha eshakday ishlamoq) mehnatkash, chidamli odam bilan fikran bog‘lanadi. Biroq, u til sohiblarning ongida o‘ziga xos jozibadorlikka ega emas, aksincha, achinish va qandaydir mensimaslik tuyg‘usini uyg‘otadi. Nemis ongida bu obrazga “ahmoq, befahm” baholovchi komponent ham berilgan. Shu munosabat bilan shaxsning obrazli nominatsiyasi uchun zoonim tanlash prizmasi orqali namoyon bo‘ladigan turli xalqlarning hayvonlarga nisbatan munosabatini ifodalash bo‘yicha kuzatishlarni qiyoslash mumkin: “Biz qiz yoki bolani yoqimli so‘z bilan chaqirmoqchi bo‘lsak, ularni kabutarlar deb ataymiz; kaltafahm va parishonxotir odamni qarg‘a deymiz. Yonma-yon yashovchi xalqlar ko‘pincha odamlarga murojaat qilish uchun hayvonlarning o‘xshash belgilaridan foydalanishadi. Agar milliy madaniyatlar sezilarli darajada farq qilsa, zooo‘xshatishlarda nomuvofiqliklar kuzatiladi. Masalan, qozoqlarda *qizqush* ochko‘zlik bilan, *boyqush* tartibsizlik va parishonxotirlik bilan, *bolari* badjahllik va norozilik bilan, *toshbaqa* dangasalik va beparvolik bilan bog‘lanadi. Rus ongida bunday bog‘lanishlarlar yo‘q”[2].

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, zoomorfizmlarni tahlil qilish tartibi sifatida quyidagilarni o‘z ichiga olgan algoritm taklif qilinadi: 1) hayvon haqidagi stereotipik tasavvurlar bilan bog‘liq turli xil situativ presuppozitsiyalar asosida obrazli o‘xshashlikning kognitiv asosini aniqlash, 2) muayyan til madaniyatida zoomorfizmning obrazli ramziy ma’nosidagi aksiologik dominantni aniqlash; 3) zoonimdan metaforik foydalanishning universalligi yoki o‘ziga xosligini frazeologik va paremiologik birliklar tarkibida qo‘llanishi doirasida ham aniqlash. Masalan, “o‘zbek lingvomadaniyatida *fil* zoomorfizmi doimiy ravishda baquvvat, qudratli, katta imkoniyatlarga ega odamning tavsiflari bilan assotsiya orqali fikran bog‘lanadi”. Ushbu zoonimning metaforik ma’nosini tushunib yetish “fil Afrika va Osiyoda yashaydigan, sut emizuvchilar sinfiga mansub, sirtga chiqqan ikkita uzun, kurak tishli va baquvvat xartumli, o‘simliklar bilan ovqatlanuvchi ulkan jussali hayvon” presuppozitsiyasiga asoslanadi. Xuddi shu presuppozitsiyalarga asoslangan nemis tilidagi ushbu zoomorfizmning qadriyatli dominanti atrofidagi hamma narsani ag‘darib tashlaydigan qovushmagan shaxsning tavsifi bilan bog‘liq bo‘lib (*sich benehmen wie ein Elefant im Porzellanladen*), nemis xalqi mentaliteti uchun muhim bo‘lgan aksiologik orientirlarni voqelantiradi. Zoomorfizm ma’nosini tushunish “fil - bu katta vaznli, terisi qalin, yo‘lidagi har qanday to‘siqlarni “ezib tashlashga” qodir bo‘lgan katta hayvon haqidagi mavjud presuppozitsiyaga asoslanadi”.

Zoomorfik (animalistik) metafora mavzusi metaforaga bag‘ishlangan barcha ishlarda ko‘rib chiqiladi, ammo barcha tillarda “hayvonlarning nomlari (zoonimlar)” tematik guruhi juda katta bo‘lishiga qaramasdan “hayvon → odam” tipidagi ma’no ko‘chishini to‘liq tasvirlovchi tadqiqotlar mavjud emas. Belgilarning o‘xshashligi asosida

[1] Глазунова О. И. Логика метафорических преобразований. - СПб, 2000. - 190 с.
[2] Горелов И. Н., Седов К. Ф. Основы психолингвистики: Учебное пособие. - М.: Издательство «Лабиринт», 2001. -304 с.

nomlarning ko‘chirilishi barcha tillarga xosdir, lekin har bir tilda nomlashdagi tasavvurlar o‘rtasidagi aloqalar ma’lum bir tarixiy asosda va ma’lum bir milliy muhitda paydo bo‘lgan hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlik bilan belgilanadi. Bu turli tillardagi bir xil nomlash assotsiatsiyalarda tanish qismning mavjudligini istisno qilmaydi. Biroq, har bir tildagi metaforalash natijasida paydo bo‘lgan so‘zlarda sezilarli farq va xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Olamning metaforik manzarasi nafaqat milliy tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlarini, balki insoniyat tafakkurining umuminsoniy xususiyatlarini ham o‘zida aks ettiradi.

Zoomorfizmlarni qiyosiy tipologik aspektda o‘rganishda “zoomorfizm” atamasidan metafora ma’nosi nazarda tutiladiki, unda hayvonning xatti-harakati, his-tuyg‘ulari yoki tashqi ko‘rinishi odamning xatti-harakati, his-tuyg‘ulari yoki tashqi ko‘rinishiga ishora qiladi hamda, tom ma’noda, ko‘pincha qo‘shimcha yoki murakkabroq ma’noni juda nozik tarzda ifodalaydi. O‘zbek va nemis tillarining leksikografik manbalarida qayd etilgan zoomorfizmlar, frazeologik va paremiologik birliklar madaniy kodning til tizimiga o‘tish natijasidir. Ularni o‘rganish, ulardagi madaniy kodlarni aniqlash o‘zbek va nemis xalqlari zoomorfik olamining lingvistik manzarasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Resume. This article is devoted to the comparative-typological study of zoonyms and zoomorphisms incorporated into the language system. The research analyzes the lexical-semantic features of zoonyms, their nominative and connotative meanings, as well as their metaphorical potential in expressing human character, behavior, and social status. Zoomorphisms are examined as figurative units formed within the phraseological, paremiological, and literary layers of language.

Резюме. В данной статье исследуются зоонимы и зооморфизмы, введённые в языковую систему, в сравнительно-типологическом аспекте. В работе анализируются лексико-семантические особенности зоонимов, их номинативные и коннотативные значения, а также их метафорический потенциал в выражении характера человека, его поведения и социального статуса. Зооморфизмы рассматриваются как образные единицы, сформировавшиеся во фразеологическом, паремиологическом и художественном слоях языка.